

Samarqand davlat pedagogika institutida

ingliz, nemis, fransuz tillaridan fan olimpiadasi tashkil qilindi.

Olimpiadaning asosiy maqsad va vazifalari

Olimpiadaning asosiy maqsadi - talabalarning xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) bo'yicha fanga oid bilimlarini mustahkamlash, xorijiy tillarni bilish darajasi bo'yicha ko'nikmalarini takomillashtirish, tarjimonlik mahorati hamda fanda ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish, yoshlar o'rtasida bilimlarning keng tarqalishi va ommalashishiga erishishni qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Olimpiadaning institut bosqichida 1, 2, 3-o'rinlarni egallagan talabalarga institutning 1, 2, 3-darajali diplomi beriladi.

Olimpiada faqat 1-o'rinni egallagan g'oliblarga O'zbekiston davlat jahon tillari institutida bo'lib o'tishi rejalashtirilgan xalqaro xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) bo'yicha fan olimpiadasi ishtirok etish uchun tavsiya etiladi

Olimpiada g'oliblarini aniqlash tartibi

Olimpiadaning institut bosqichi g'oliblari Hakamlar hay'ati natijalari asosida aniqlanadi va birinchi o'rin g'oliblari ikkinchi bosqichga tavsiya etiladi.

Olimpiada g'oliblari quyidagi topshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilish darajasiga qarab aniqlanadi:

Birinchi shart - test.

Mamlakatshunoslik, adabiyot, grammatik va leksik materiallar asosida tuzilgan 50 ta savoldan iborat test topshiriqlarini bajarish uchun 110 daqiqa;

Ikkinchi shart - yozma.

10-15 daqiqa davomida badiiy filmdan parcha ko'rish va mazmunini yozma ravishda kamida 250 so'zdan iborat bayon yozish 45 daqiqa;

Uchinchi shart - tarjima.

O'zbek yoki rus tilidagi matnni chet tiliga tarjima qilish uchun 40 daqiqa;

To'rtinchi shart - suhbat.

Tili o'rganilayotgan mamlakatning davlat tizimi, iqtisodiyoti va san'ati, buyuk siymolari, yoshlar hayoti va shu kabilar haqida tayyorgarlik uchun 20 daqiqa, suhbat uchun 10 daqiqa vaqt beriladi.